



## O'QUVCHILARNING KITOGBGA BO'LGAN MEHRINI OSHIRISH

Mansurova Maxfuza Salievna

Toshkent shahar Yashnobod tumani

61-maktab boshlang'ich sinf o'qituvchisi

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada o'quvchilarda kitobxonlik madaniyatini shakllantirish va ularning kitobga bo'lgan mehrini oshirishning samarali yo'llari yoritilgan. Kitob o'qish nafaqat bilim manbai, balki shaxsiy tarbiyaning muhim omilidir. Maqolada maktab va oilada amalga oshirilishi mumkin bo'lgan chora-tadbirlar, metodik yondashuvlar va zamonaviy usullar tahlil qilinadi.

**Kalit so'zlar:** kitobxonlik, ta'lif, motivatsiya, madaniyat, o'quvchi, oila, maktab, adabiyotga mehr.

**Kirish.** Kitob inson tafakkurini charxlovchi, ruhiyatini boyituvchi va ma'naviy dunyosini kengaytiruvchi beqiyos manba hisoblanadi. Ayniqsa, bugungi raqamli axborot oqimi kuchaygan davrda yosh avlodning kitobga bo'lgan qiziqishini saqlab qolish va oshirish dolzarb masalalardan biridir. O'quvchilarda kitobxonlik ko'nikmalarini shakllantirish, ularni bosqichma-bosqich o'qishga o'rgatish, ularda badiiy adabiyotga nisbatan mehr uyg'otish – nafaqat maktab, balki jamiyat va oilaning ham muhim vazifalaridan biridir.

Afsuski, bugungi kunda aksariyat o'quvchilar kitob o'qishga unchalik qiziqmaydi, ularning asosiy e'tibori telefon, planshet yoki ijtimoiy tarmoqlarga qaratilgan. Shu sababli maktab ta'limi jarayonida kitobga mehr uyg'otish, kitobxonlikni rag'batlantirish, o'qituvchi va ota-onalarning hamkorligi asosida bu borada uzviy tizim yaratish zarur. Kitobxonlik madaniyati shaxs kamoloti va ijtimoiy ongning shakllanishida katta ahamiyatga ega bo'lganligi bois, uni erta yoshdan boshlash lozim.

**Kitobxonlikni shakllantirishda matabning roli.** Maktab o'quvchining bilim olishi va ijtimoiylashuvi uchun asosiy muhit bo'lib, aynan shu jarayonda kitobga bo'lgan mehrning dastlabki poydevori qo'yiladi. O'quv dasturlarida adabiyot fani orqali badiiy matnlarni o'rghanish, ularni tahlil qilish, obrazlar ustida ishslash orqali o'quvchilarni o'qishga jalb etish mumkin. Bunda o'qituvchining roli juda katta: u faqat darslikdan cheklanib qolmasdan, zamonaviy va milliy adabiyot namunalarini, bolalar uchun qiziqarli hikoyalar va ertaklarni o'quvchilarga tanishtirishi kerak.

Shuningdek, maktablarda kitobxonlikni targ'ib etish maqsadida adabiy kechalar, mualliflar bilan uchrashuvlar, "Kitob haftaligi", "O'zing sevgan asaring





## TANQIDIY NAZAR, TAHLILYIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



haqida so‘zla” kabi interaktiv tadbirlar tashkil etilishi lozim. Bunday tadbirlar bolalarda nafaqat o‘qish odatini, balki nutq madaniyati, erkin fikrlash va tahliliy yondashuv ko‘nikmalarini ham rivojlantiradi. Maktab kutubxonalari esa zamонавиylashtirilib, bolalar uchun maxsus adabiyotlar bilan boyitilishi kerak. Har bir sinfda kichik kutub burchagi bo‘lishi, bu yerda o‘quvchilar o‘zaro kitob almashishlari, tavsiya qilishlari foydali bo‘ladi.

**Oila muhitida kitobga mehr uyg‘otish.** Oilada kitob o‘qish muhitining mavjudligi farzandning dunyoqarashi va madaniy qadriyatlarga bo‘lgan munosabatini shakllantiradi. Agar bola ota-onasini qo‘lida kitob bilan ko‘rsa, u bu holatni tabiiy qabul qiladi va o‘zi ham ushbu odatni o‘zlashtiradi. Ota-onalar farzandlariga yoshiga mos ertaklar, qiziqarli hikoyalar o‘qib berishi, har kechki uyqudan oldin birgalikda o‘qish odatini joriy qilishi mumkin. Bu nafaqat bolani kitobga jalb etadi, balki oila a’zolari orasida iliq muloqotni ham shakllantiradi.

Bundan tashqari, har bir oilada alohida kitob javonining mavjudligi, farzand uchun shaxsiy kutubxona shakllantirish, biror bayram yoki mukofot sifatida kitob sovg‘a qilish an’anasi yaratish ham kitobga bo‘lgan mehrni oshiradi. Ba’zi oilalarda farzandining o‘qigan kitobi haqida suhbatlashish, uning fikrini eshitish, hiss tuyg‘ularini baham ko‘rish orqali bolaning tahliliy fikrlashi rivojlanadi. Ota-onaning befarqligi, ularning o‘zi kitobga qiziqmasligi esa, afsuski, bolada bu odatning shakllanishiga to‘sinqlik qilishi mumkin.

**Zamonaviy vositalar yordamida kitobxonlikni rag‘batlantirish.** Raqamli texnologiyalar taraqqiyoti yoshlarning hayotida chuqur o‘rin egallagan. Aynan shu vositalarni to‘g‘ri yo‘naltirish orqali o‘quvchilarni kitob o‘qishga jalb qilish mumkin. Masalan, elektron kitoblar va audiokitoblar orqali o‘qish jarayoni qulay va har qanday joyda davom ettirilishi mumkin. Bolalar uchun mo‘ljallangan mobil ilovalar, qiziqarli o‘yin shaklidagi o‘quv platformalari orqali ular kitob o‘qishni zerikarli emas, balki zavqli mashg‘ulot deb qabul qilishi mumkin.

Shuningdek, internetda mavjud bo‘lgan bepul elektron kutubxonalar – “Zyonet”, “Kutubxona.uz”, “Kitob.uz” kabi platformalar orqali bolalar sevimli asarlarini topishi va ularni elektron formatda o‘qishi mumkin. Bu jarayonga ota-onalar va o‘qituvchilar ham qo‘silishi, ularni monitoring qilib borishi foydalidir. Shu bilan birga, o‘quvchilarga maxsus tanlovlар – “Eng yaxshi audio kitob sharhi”, “Elektron kitob marafoni” kabi loyihalarni taklif qilish orqali ularni zamонавиy vositalar yordamida rag‘batlantirish mumkin.

**Kitobxonlikni baholash va rag‘batlantirish mexanizmlari.** O‘quvchilarning o‘qigan kitoblari bo‘yicha baholash, rag‘batlantirish va ularga ijtimoiy e’tibor berish juda muhim. Masalan, sinfda yoki maktabda maxsus “Kitobxonlik журнали” yuritilishi,





## TANQIDIY NAZAR, TAHLILYIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



bu yerda o‘quvchining o‘qigan asarlari, ularning qisqacha mazmuni, tahlillari qayd etilishi mumkin. Har oyning yakunida eng faol kitobxonlar e’lon qilinishi va rag‘batlantirilishi zarur.

**Xulosa.** O‘quvchilarda kitobga mehr uyg‘otish – ularning shaxsiy rivojlanishi, mustaqil fikrlashi va ma’naviy kamoloti uchun zaruriy omildir. Bu borada maktab, oila va jamiyat hamkorligida tizimli ishlar olib borilishi zarur. An’anaviy va innovatsion usullar uyg‘unligi, rag‘batlantiruvchi tashabbuslar, kitobxonlik muhitini yaratish orqali yosh avlodda kitobga muhabbatni shakllantirish mumkin. Bu esa, kelajakda ma’rifatli, ongli va mustaqil fikrlovchi fuqarolarni tarbiyalashga xizmat qiladi.

### Foydalilanigan adabiyotlar

1. Jo‘raeva D. *Bolalar kitobxonligini rivojlantirish masalalari*. – Toshkent: Fan, 2020.
2. Nuriddinova S. *Pedagogik jarayonda kitobning o‘rni*. – Toshkent: Yangi asr avlodи, 2019.
3. Qodirova M. *Kitob va ma’naviyat*. – Toshkent: O‘zbekiston, 2021.
4. G‘ulomov A. *O‘qituvchi va kitob: tarbiyaviy omil sifatida*. – Toshkent: Ma’naviyat, 2022.
5. Internet manbasi: [www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz) – O‘zbekiston ta’lim portali.

